

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>P.S.Otaqulov</b>	
Geografik nomlarni o'rganishga ijtimoiy-ekologik yondashuv .....	92
<b>B.M.Dehqonov</b>	
Andijon viloyati ekin yerlari monitoringi va uni baholash .....	97
<b>X.Sh.Djo'raboyeva</b>	
An'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishida geografik omillarning o'rni.....	101
	ILMIY AXBOROT
<b>M.K.Usmonaliyeva</b>	
Chor Rossiyasi hukmronligi davrida turkiston o'lkasida milliy matbuotning vujudga kelishi.....	105
<b>O.N.Fozilova</b>	
Oybekning bolalarga atalgan hikoyalarida qahramon talqini.....	108
<b>J.J.Mamatisakov</b>	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirishning innovatsion - pedagogik modeli .....	113
<b>N.B.Yuldasheva</b>	
Ingliz va o'zbek tillari matnlaridagi paremiyalarni tadqiq etishning muxim jihatlari.....	121
<b>G.O.Abdujalilova</b>	
Ekspozitsiya va uning badiiy-estetik funksiyasi .....	124
<b>X.Z.Umarova</b>	
Epistolary lines: the transformative power of letters in saul bellow's novel «Herzog» .....	127
<b>D.Hakimova</b>	
Yosh voleybolchilarning maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirish .....	130
<b>G'.M.Alamov</b>	
Xalq o'yinlari va milliy bellashuvlarning o'quvchi-yoshlarni tarbiyalovchi muhim omil sifatidagi ahamiyati .....	135
<b>A.K.Xudayberdiyev, M.J.Usmonova</b>	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yagona to'g'ri yo'li-ta'lim sifatini oshirish.....	139
<b>S.R.Xoliqov</b>	
Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviyati va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullari .....	143
<b>M.A.Алиева</b>	
Неомифологизм в творчестве дмитрия сергеевича мерещковского .....	147
<b>A.Y.Ergashev</b>	
Yangi O'zbekistonda pedagogning maqomi: ijimoiy-falsafiy tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari .....	152
<b>Z.X.Oxunova</b>	
Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy-antropologik mazmuni .....	155
<b>X.J.Isomiddinov</b>	
Yoshlar tafakkurini rivojlantirishning tarixiy-falsafiy jihatlari.....	158
<b>R.D.Mustayev</b>	
Vatanparvarlik tushunchasining tarixiy-falsafiy mohiyati .....	161
<b>B.I.Muxtoraliev</b>	
Ilk hikoyalaridagi ijodiy o'ziga xoslik .....	165
<b>D.S.Abdugodirov</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	171
<b>M.M.Azizov</b>	
Methodology of optimizing sports and health programs through scandinavian walking .....	174
<b>A.U.Xamidjanov</b>	
Yuqori malakali kurashchilarni vazn-bo'y ko'rsatkichlarini model xususiyatlari o'rganish asosida yosh erkin kurashchilarni saralash va yo'naltirish metodikasi.....	181
<b>G.T.Dadamirzayeva</b>	
Inson salomatligi va ruhiyatiga musiqaning ta'siri.....	191

**YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARINING MA'NAVIYATI VA VATANPARVARLIK RUHIDA  
TARBIYALASHNING ASOSIY USULLARI****ДУХОВНОСТЬ МОЛОДЕЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА И ОСНОВНЫЕ МЕТОДЫ ИХ  
ВОСПИТАНИЯ В ПАТРИОТИЧЕСКОМ ДУХЕ****THE MAIN METHODS OF EDUCATION OF YOUNG PEOPLE OF NEW UZBEKISTAN IN  
SPIRITUALITY AND PATRIOTIC SPIRIT****Xoliqov Sardor Raximovich<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (chaqiriqqacha harbiy ta'lim) magistranti**Annotatsiya**

*Maqolada yoshlar ma'naviyati, unga ta'sir etuvchi omillar, usullari, ommaviy madaniyat va uning bugungi yoshlar ma'naviyatiga, tarbiyasiga ta'siri, yoshlarni vatanparvarlik ruхida tarbiyalashning ayrim yo'l-yo'riqlari haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Аннотация**

*В статье высказывается о духовности молодежи, о факторах и методах его развития, массовая культура и ее влияние на духовность современной молодежи и интерактивные путей воспитания молодежи в патриотическом духе.*

**Abstract**

*The article provides information about youth spirituality, factors and methods affecting it, mass culture and its influence on the spirituality and education of today's youth, and some guidelines for educating youth in the spirit of patriotism.*

**Kalit so'zlar:** mentalitet, ijtimoiy tarmoqlar, globallashuv jarayoni, milliy qadriyatlar, tarbiyaning milliy tizimi, usullari, yoshlar tarbiyasi, jamoatchilik kengashi, ma'naviyat va ma'rifat.

**Ключевые слова:** менталитет, социальные сети, процесс глобализации, национальные достоинства, национальная система воспитания, воспитание молодежи, общесвенные советы, духовность и просвещение.

**Key words:** mentality, social networks, globalization process, national values, national system and methods of education, youth education, public council, spirituality and enlightenment.

**KIRISH**

Bugungi kunda jahon sivilizatsiyasi doirasida axborot almashinuv tizimi zamonaviy vositalar orqali aholining turli qatlamlariga ularning ongi, madaniyati, axloqi, ma'naviyatiga birday singib bormoqda. Turli mavzudagi xabarlar, voqealar statistik ma'lumotlarning qay darajada aniqligi, haqiqatga yaqinligiga esa to'liq kafolat yo'q. Chunki, norasmiy xabarlar va voqealarning aksariyati tarmoqlarda jaylashib olgan, shov-shuv voqealarni tarqatib mablag' yig'uvchi nokas insonlarning feyk ma'lumotlaridan iborat bo'ladi.

Mamlakatimizda axolining aksariyat qatlamlarini tashkil etuvchi yoshlar, maktab o'quvchilaridan tortib to talabalargacha mobil telefon vositalaridan foydalanadi. Ularning asosiy vaqti mobil telefonlardagi turli o'yinlar mentalitetimizga va ma'naviyatimizga to'g'ri kelmaydigan tik-tok kabi kanallarni titkilash bilan o'tayotganligi xech kimga sir emas albatta. Buning ustiga maktabgacha yoshdagi bolalarni mobil telefonlar asosiy "o'yinchog'i"ga aylangan.

Bugungi kunda bunday axborot vositalari yoshlar uchun kerakli, degan savol tug'iladi, xa kerakligi qanday me'yorda, qanday vaziyatda kerak bo'ladi degan savolga ota-onalar ham, ustoz murabbiylar ham o'ylab javob berish talab etiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Bugungi yoshlarning hayotiy ehtiyojlarida internet tarmoqlariga bog'lanish tufayli yuzaga kelgan onlaynlashuv, ularning fe'l atvorida milliy qadriyatlarga, mintallitetga nisbatan begonlashuv, egoizm shafqatsizlik, xudbinlashuv kabi illatlarni kurtak ortishiga olib kelmoqda. Ko'chada janjallashib qolgan ikki odamni ko'rsa, ajratib qo'yish o'rniga video-rolik qilib You-Tube, Tik-tok tarmoqlariga joylamoqdalar, hattoki yo'l transport hodisalarida jabrlanganlarga yordan ko'rsatish o'rniga videoga olib ijtimoiy tarmoqlarda tarqatishni zarur deb biladilar.

Globalashuv jarayoni ommaviy tarbiya deb ataluvchi g'arb tarbiyaviy usullarini, madaniyatini shitob bilan mamlakatimizga ham kirib kelishini, yoshlarning esa soxta madaniyatga berilib borishini

ta'minlamoqda. Turk va boshqa davlatlarning serialaridan kirib kelgan soqol qo'yish, xijob kiyishni diniy qadriyat yoki sunnat amallaridan ko'ra qandaydir moda, o'zini ko'z-ko'z qilish deb bilgan ayrim yoshlar diniy va dunyoviy bilimlarni teran anglasalar yaxshi bo'lar edi. Muftiy hazratlari Nuriddin Xoliqnazarov aytganiday biz arablardan dinni, islomni o'rgandik, kiyinishni emas. Har bir xalqning o'zining tabiiy iqlimiy sharoiti, milliy madaniyatidan qolaversa yosh xususiyatidan kelib chiqib o'ziga xos kiyinish madaniyati bor.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2023-yilning 22-dekabrida Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ba'zi guruhlar orasida diniy qarashlarni Konstitutsiya va qonunlarimizga qarshi qo'yish, dunyoviy qadriyatlarni harom deb bilish holatlarini afsus bilan qayd etdi (Kun.uz.2023.22.12)

Yoshlarning hayotida ommaviy udumlardan tiyilishi bilan birga, o'tkinchi tarbiyaviy jarayonlarga intilish, milliy hikmatlardan begonalashuv, umumiylik qadriyatiga ko'p vaqt ajratishi natijasida oilaviy qadriyatlarning nochorligi ota-onalardan begonalashuv jarayoni tarbiya munosabatlarida ommaviylashmoqda. Ko'p hollarda yoshlarimiz o'zligini milliy qadriyatlardan mosuvo etib, urflashgan vulgar kiyinish, insonni kuchli emotsiyaga olib boruvchi jarayonlarga maylning ortishi hayot mazmuniga aylanib bormoqda.(4.b 281-284)

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda yoshlarni tarbiyalash, bilim olishlarini ta'minlash, ularning baxtli kelajagini qurish mamlakatimizda qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan. Jumladan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo'yicha komissiyaning tuzilishi, Oliy majlis palatasi qoshida Yoshlar parlamentining faoliyat yuritishi ham yoshlarga bo'lgan davlat g'amxo'rligining yorqin misolidir. Ayniqsa yoshlarni ish bilan ta'minlash, kasbga o'rgatish, ularni qo'llab quvvatlash maqsadida tashkil etilgan "Yoshlar daftari"ni joriy etilishi, o'qishlari davomida to'lov-kontrakt summalarini to'lashga yordam berish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga subsidiyalar va imtiyozli kreditlarni ajratish ko'plab yoshlarimizni kelajagini belgilashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi yoshlarni tarbiyalashda ularni xalqimizning boy qadriyatlarini, an'alarini, etnoslarning milliy mentalitetiga xos mehr-oqibat, sadoqat, vatanparvarlik jihatlari ularga singdirish muhim vazifalardan sanaladi. Yoshlarni jismoniy sog'lom, baquvvat, jasur, vatanini sevuvchi, kerak bo'lganda uni sadoqat bilan himoya qiluvchi shaxslar sifatida tarbiyalash ham bugungi kunning muhim va dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 29-iyundagi 267-sonli Qarori muhim huquqiy-me'yoriy hujjat hisoblanadi. Ushbu qarorda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir qator vazifalar belgilab berilgan. Ulardan eng muhimlari sifatida Yoshlarning harbiy vatanparvarlik tuyg'ulari, ma'naviy sifatlarini va intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaning yagona tizimini yaratish vazifalari ko'rsatib o'tilgan.

Vatan o'z ostonasidan boshlansa, vatanparvarlik esa o'z o'lkasini o'rganishdan boshlanadi. Darhaqiqat o'z o'lkasini o'rganish, uning iqtisodiy salohiyatini, hududiy joylashuvi, geosiyosiy pozitsiyasini o'rganish, sarhadlarimiz, ularning uzunligi haqidagi ma'lumotlarni bilish, mamlakatimizning tichlikparvarlik siyosatining mohiyatini chuqur anglash, jahonda ro'y berayotgan siyosiy voqealarni holisona boholashni o'rganish kabi jihatlar yoshlarni xarbiy vatanparvarlik, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdagi o'rni beqiyosdir. Lekin har qanday tarbiya jarayoni tizimli bo'lmas ekan uning samaradorligi ham bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-2027-yillarda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish "konsepsiyasi"da yoshlarning harbiy vatanparvalik ruhida tarbiyalashning amalga oshirishning asosiy bosqichlari ko'rsatib berilgan: 1 bosqich (3-7 yosh), 2 bosqich (7-10 yosh) 3 bosqich (11-17 yosh), 4bosqich (18-21 yosh), 5 bosqich (22-30 yosh) shuningdek mazkur konsepsiyada yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy prinsiplari va usullari ham ko'rsatib o'tilgan. Shuni ta'kidlash joizki, yoshlarni sog'lom, jismoniy baquvvat, yuksak ma'naviyatli, o'z oilasiga va vataniga sadoqatli, bilimli qilib tarbiyalashda me'yoriy va huquqiy hujjatlardan tizimli foydalanish, yoshlarni tarbiyalashdagi har bir bosqichda bolani yosh xususiyatiga xos bo'lgan va yagona maqsadga qaratilgan strategik dasturlarni ishlab chiqish, ularni muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga egadir. Ko'pincha bola bog'chadan maktabga, undan oliy o'quv yurtiga borganda ta'lim tarbiya jarayonidagi o'zgarishlarga, yangiliklarga moslashuv jarayoni bir muncha qiyin kechadi. Bunday holatlarda ta'lim va tarbiya jarayoni integratsiyasi muhim ahamiyatga egadir.

Yoshlar tarbiyasida ota-ona dan tortib, mahalla yig'inlari, o'quv yurtlari bilan birgalikda jamoat bilashmalari, nodavlat tashkilotlari, o'z-o'zini boshqarish idoralari, huquqni muhofaza qilish organlari yoshlarni tarbiyalashdagi integratsiya jarayonlarida birdek qatnashib, o'z faoliyati doirasidagi tadbirlarni amalga oshirishlari talab etiladi

Aksariyat yoshlarda o'zi tug'ilgan, yashab turgan joyi haqida geografik oriyentatsiya shakllanmagan. Talabalar bilan ishlashim davomida ularni yashash joylarini so'raganimda Qo'shtepa tumanida yashovchilar Marg'ilondanman, O'zbekiston tumanida yashovchi talaba esa Qo'qondanman deb javob berganlar, ya'ni ular tuman va shaharni farqiga bormaydilar. Bunday holatda davlatimiz haqidagi bilimlarni bilishi amri maholdir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan yoshlarga oid qator me'yoriy hujjatlarda jumladan "Yoshlarga oid Davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunda ( 14.09.2016-y O'RQ-406 son) yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, sifatli bilimlarni olishi uchun shart-sharoitlar yaratish, yoshlarga psixologogik-pedagogik, tibbiy, biologik, huquqiy yordam qo'rsatish voyaga yetmagan fuqarolarga amaliy maslahatlar berish, yosh oilalarga ijtimoiy yordam berish, mehnat va o'quv jamoalarida yoshlar huquqlarini himoya qilish belgilab qo'yilgan. Qonunning 13-moddasida yoshlar uchun ijtimoiy xizmatlarni tashkil etishning maqsad va vazifalari aniq qo'rsatib berilgan. Ijtimoiy xizmatlarni tashkil etishda ta'lim muassasalari, o'quv yurtlari, nodavlat tashkilotlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish idoralarining imkoniyatlari kattadir. Ayniqsa yoshlarga ijtimoiy xizmatlarni tashkil etishda mahalla fuqarolar yig'inining imkoniyatlari kattadir. Buning uchun mahalla fuqarolar yig'ini tarkibida jamoatchilik asosida yoshlar markazini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Mahalla va o'z-o'zini boshqarish institutlarini kengaytirish unga mahalladagi nuroniylarni jalb qilish orqali oqsoqollar kengashini tashkil etish, mahallalardagi yoshlarni huquqiy bilimlarini kengaytirish maqsadida mahalla faoliyatiga tajribali yuristlarni jalp etish, tibbiy savodxonligini oshirish uchun tibbiyot xodimlarini jalb etish, mahallalarda kasbga o'rgatish, yoshlarni tegishli kasbga yo'naltirish bo'yicha turli kasb egalari va olimlarni konsultatsiyalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish jamoatchilik asosida amalga oshirilib har oyning ma'lum kunlari belgilangan grafik asosida faoliyat ko'rsatadi. Mahalla fuqarolar yig'ini qoshida tashkil etilgan ijtimoiy xizmatlar markazi faoliyatini mahalla raislari tomonidan nazorat qilib boriladi.

Yana bir muhim vazifa sifatida yoshlarni ma'naviy ma'rifiy bilimlarini reyting ko'rsatgichlarini hisobga olib borishni tavsiya etamiz. Har bir maktab o'quvchisi, o'rta maxsus, oliy ta'lim talabalarining reytingi esa ular o'rtasida olib boriladigan savol javoblar, test nazorati, ularning o'quv muassasalaridagi ma'naviy – ma'rifiy tadbirlardagi ishtirokiga qarab ball ko'rsatgichida baholab boriladi. Bu tadbirlar yoshlarimizning nafaqat jamoatchilik asosida, balki o'z o'zini nazorat qilishiga ham imkoniyat yaratib beradi. Shunday qilib har bir yoshning uning yosh xususiyatiga ko'ra reytingi o'quv yurtlari, jamoat tashkilotlari, yoshlarni ish joylarida o'rganilib rag'batlantirib boriladi. Bugungi kunda talaba yoshlarning bilimiga beriladigan baholar turli dasturlar orqali nazorat qilib borilmoqda, ma'naviy ma'rifiy savodxonligini nazorat qilish ham ta'lim dasturlariga asoslanishi maqsadga muvofiqdir.

Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 22-dekabrda Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida 9 ta yo'nalishda muhim bo'lgan tashabbuslarni ilgari surdi. Prezident Sh.Mirziyoyev ma'naviyat va madaniyat sohasi uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladigan milliy g'oyani rivojlantirish bo'yicha alohida dastur-hujjat ishlab chiqish zarurligini ta'kidlab o'tdi.

### XULOSA

Respublikamizda davlat taraqqiyotining yangi bosqichiga o'tish yoshlarning ma'naviy barkamolligi, axloqiy yetukligi, bilim va malakasining shakllanganligiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda yoshlarning bilim olishlari, sport, ma'naviy ma'rifiy tadbirlarda faolligini ta'minlovchi, yoshlarni ijtimoiy huquqiy himoya qiluvchi, iqtisodiy jihatdan qo'llab quvvatlovchi ko'plab mexanizmlar mavjud, shuningdek mamlakatimizda qabul qilinayotgan ko'plab qarorlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar jamiyatimiz yoshlarini bilim olishlari, mehnat faoliyatlarini rag'batlantirish, huquqiy va ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan va zero yoshlarimiz buni chukur anglashlari, o'zlariga berilgan imkoniyatlardan to'liq foydalanishlari orqali jamiyatimizning faol qatlamlariga aylanishlari talab etiladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Yoshlarga oid Davlat Siyosati To'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (O'RQ -406. 14.09.2016y).

2. "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini samaradorligini oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-sonli Qarori.

3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 22-dekabrda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida so'zlagan nutqi.

4. X.Mirzaaxmedov. Jamiyatning transformatsiyasida yoshlar axloqi. Yangi O'zbekistonning iste'dodli yoshlari to'plami 3-kitob T.Talim nashriyoti 2021-y 281-288 b.